

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BEGALIYEV NURLAN KUWANISHBAY ULI**

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TYUTORLIK FAOLIVATI,  
MAZMUNI VA ISHLASH MEXANIZMI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus-2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Begaliyev Nurlan Quwanishbay uli**

Oliy ta'lim muassalarida tyutorlik faoliyati mazmuni va ishlash  
mexanizmi..... 3

**Бегалиев Нурлан Куўанышбай улы**

Содержание и механизмы тьюторской деятельности в высших учебных  
заведениях..... 23

**Begaliev Nurlan Kuanishbay uli**

The content and mechanisms of tutoring activities in higher education  
institutions..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BEGALIYEV NURLAN KUWANISHBAY ULI**

**OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA TYUTORLIK FAOLIYATI,  
MAZMUNI VA ISHLASH MEXANIZMI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6082 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb- sahifasida ([www.ndpi.uz](http://www.ndpi.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna**  
pedagogika fanlari doktori, DSc, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ibraximov Sanjar Urunbaevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Tilegenov Asqarbay Tolegenovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 -yil «16» I soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks (99861) 229-40-75, e-mail: [nkspi\\_info@edu.uz](mailto:nkspi_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (166 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «30» XII da tarqatildi.  
(2025 -yil «30» XII dagi 166 raqamli reestr bayonnomasi)



**B.P. Otemuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., professor

**G.K.Kdirbaeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi,  
f.f.d., (DSc), professor

**A.K. Berdimuratova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda so‘ngi yillarda kechayotgan globallasuv jarayoni zamonaviy ta‘lim bilan bir qatorda yoshlar tarbiyasini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishga katta e‘tibor qaratishni talab qilmoqta. Xorijiy davlatlarda tyutorlarning talabalar tarbiyasidagi roli ularning akademik va shaxsiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tyutorlar talabalarga nafaqat ilmiy-metodik yordam beruvchi, balki emotsional va psixologik rivojlanishiga ham hissa qo‘shishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijtimoiy aloqalar o‘rnatish borasida Melburn universiteti (Avstraliya), Kaliforniya universiteti (AQSH), Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya) hamda Moskva davlat universitetida (Rossiya Federatsiyasi) olib borilgan tadqiqotlarda tyutorlik tizimi va uning talabalarda motivatsiya hosil qilishga ta‘sir ko‘rsatadigan omillari tahlil qilingan.

Dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlarida globallasuv jarayonlari tobora jadallashib borayotgan transformatsiya davrida malakali kadrlar tayyorlashga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlashga alohida e‘tibor qaratilayotgani bejiz emas. Tyutorlarning talabalar bilan o‘zaro aloqalarini chuqurlashtirish va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga intellektual va emotsional takomiliga ham hissa qo‘shishga doir ilmiy izlanishlar salmog‘ining tobora oshayotganligi buni tasdiqlaydi.

Davlatimizda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning tayanch va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash mamlakat va jamiyatimiz oldida turgan asosiy muammolardandir. Zero, “Farzandlarimizni erkin fikirli, zamonaviy kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, haqiqiy vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi”<sup>1</sup>. Albatta, bu muammolarni hal qilishda talabalarni sog‘lom e‘tiqodli, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan barkamol, raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalash oliy ta‘lim muassasalari zimmasiga katta ma‘suliyat yuklaydi. Xususan, bu borada tyutorlik faoliyatini yoshlarning ta‘lim olishida dunyo oliy ta‘lim muassasalari tomonidan tan olingan qadimiy an‘analarning zamonaviy ko‘rinishi sifatida rivojlantirish istiqbolda yaxshi natijalar berishi ko‘zda tutilmoqda. Biroq, hozirga qadar tyutorlik faoliyati mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llanilmaganligi sababli ta‘lim tizimida uning qanday ta‘sir ko‘rsatishi haqida aniq fikrga kelinmagan. Shu bois tyutorlik faoliyatining talabalar ta‘lim-tarbiyasiga oid mezonlar hamda mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini ilg‘or xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan foydalangan holda takomillashtirish ijobiy natija berishi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PP-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017, 157-158-betlar.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkillashtirish bilan aloqador tizimni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” va 2021-yil 9-sentyabrda 563-son “Respublika Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turor joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorlari, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 30-sentabrda 421-son buyrug’i, 2025-yil 17-oktyabrda 656-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” va shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishini ta’minlashda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning o’rganilganlik darajasi.** Tyutorlik faoliyatining paydo bo’lishi va rivojlanish bosqichlari, talabalarni qo’llab-quvvatlash, ko’maklashish, hamroqlik qilish, yo’l-yo’riqlar ko’rsatish masalalari bo’yicha A.X. Boymurodov, I.D. G’aniev, M.Y. Rejabov, A.E. Ibrayimov, N.M. Urinova, X. Abdullaevalarning ilmiy tadqiqotlari mavjud. Tyutorlik faoliyatida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari va amaliy faoliyati haqida esa M.A. Axmedova, T.U. Kulniyazovlar tomonidan o’rganilgan.

MDH davlatlarida tyutorlik faoliyatining amaliy jihatlari hamda tyutorning kasbiy kompetensiyalari E.A. Shelnokova, tyutorlikning tarixiy shakllanishi va nazariy asoslari N.B. Ribalkina, bo’lajak pedagoglarda tyutorlik faoliyatiga tayyorlikni shakllantirish yo’llari B.S. Tsiliskiy, zamonaviy ta’limda tyutorlik faoliyatining roli L.P. Shipovskaya, tyutorlik faoliyatining amaliy va kasbiy faoliyati haqida T.M. Kovaleva tomonidan o’rganilgan.

Xorij olimlaridan tyutorlik faoliyati bo’yicha ilmiy tadqiqotlar turli yo’nalishlarda olib borilgan. Jumladan, R. Parker va J.E. Hasbrouck tomonidan talabalarning o’qishi bilan bog’liq muammolarni bartaraf etishda tyutorlik faoliyatining amaliy jihatlari, K.F. Smith va A.B. Jones tomonidan shakllanish tarixi va nazariy asoslari keng miqyosda yoritilgan.

Bugungi kunga kelib tyutorlik faoliyati muommosiga faqat uning amaliy jihatdan yondashilayotgani sir emas. Ammo, tyutorlik faoliyati mexanizmining mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimiga aloqadorligi xususida aytish joizki, uning ta’lim tizimida shakllantirilishi, amaliy natijasiga oid izlanishlar sust darajada ekanligini ko’rsak bo’ladi. Ayni shu holat tadqiqot muammosining dolzarbligidan dalolat beradi.

**Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining “Uzluksiz ta’lim tizimida III renessans davriga

mos yoshlarni o'qitish va tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'lim muassasalaridagi tyutorlik faoliyati mexanizmini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

globallashtirish sharoitida tyutorlik faoliyatining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari tahlili orqali tyutorlik mexanizmining ta'lim va tarbiya integratsiyasiga yo'naltirilgan mazmunini aniqlashtirish;

tyutorlik faoliyatining oliy ta'lim muassasasi va talabalar o'rtasidagi ta'lim va tarbiya uyg'unligi misolida ijodiy munosabatlarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

oliy ta'lim muassasasidagi tyutorlik faoliyati samaradorligini oshirishning pedagogik modelini ishlab shiqish va tajriyba-sinovdan o'tkazish orqali tyutorlik faoliyati mexanizmini takomillashtirish;

tyutorlik faoliyatining ijtimoiy pozitsiyasini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Chirshiq davlat pedagogika universitetining 293 nafar tyutori va 947 nafar talabalari jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** tyutorlik faoliyatining mexanizmi mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida analiz, sintez, savolnomalar (og'zaki va yozma), nazorat, anketa olish, taqqoslash, rejalashtirish, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil metodlar qo'llanilgan. .

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

globallashtirish sharoitida tyutorlik faoliyatining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari misolida mazkur faoliyatning kognitiv, motivatsion, reflektiv, amaliy komponentlari mexanizmi mazmuni kasbiy integrativ yondashuvga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

tyutorlik faoliyatining innovatsion mexanizmi oliy ta'lim muassasasi va talabalar o'rtasida o'z ustida ishlash, ijtimoiy munosabat o'rnatish, izlanuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ta'lim va tarbiya integratsiyasi asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyati samaradorligi darajasini rivojlantirish mexanizmi auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talaba yoshlarni tarbiyalashning ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyati natijalarini empirik, pragmatik, plyuralistik omillar asosida bosqichma-bosqich tashkil etish modeli orqali takomillashtirilgan;

tyutorlik faoliyati ijtimoiy pozitsiyasini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar faoliyatli va dunyoviy mezonlar bilan diagnostik metodlarning muvofiqligiga ustuvorlik berish orqali takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari tyutorlari uchun "Guruhlar tyutori shaxsiy jurnaliga yordamshi" nomli jurnal ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari talaba va magistrantlari uchun "Tarbiyaviy ishlarni boshqarishda tyutor faoliyatining o'rni" nomli o'quv qo'llanma, "Komparativistikaliq pedagogika" nomli darslik yaratilgan;

tyutorlik faoliyatining samaradorligini oshirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan;

tyutorlik faoliyatining ijtimoiy pozitsiyasini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab shiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot mavzusining metodologik jihatdan asoslanganligi, qo'llanilgan yondashuv va nazariy qarashlarning ishonchli manbalardan olinganligi, kuzatishlarning davomiyligi, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida asoslanlanligi, tadqiqot maqsadiga erishishga doir vazifalarning identivligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiq etilayotgan muammo "tyutorlik faoliyati mexanizmi", globallashuv jarayonida tyutorli faoliyatining nazariy-uslubiy jihatlari, "tyutorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari" tushunchalarining mazmuni, mohiyati va mezonlari aniqlashtirilgani bilan izohlanadi;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tyutorlar faoliyatiga yordamchi sifatida ishlab chiqilgan "Guruhlar tyutori shaxsiy jurnaliga yordamshi" nomli jurnal orqali tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish dasturining yaratilganligi, talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilishiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyati, mazmuni va ishlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tyutorlik faoliyatining kognitiv, motivatsion, refleksiv va amaliy kamponentlari mexanizmi mazmuniga doir taklif va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun "Tarbiyaviy ishlarni boshqarishda tyutorlik faoliyatining o'rni" nomli o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 dekabrda 537-son buyrug'i, № 537319-raqamli guvohnoma). Natijada, tyutorlik faoliyati, mazmuni va ishlash mexanizmi takomillashtirilgan;

tyutorlarga biriktirilgan talabalar munosabatlarini natijali tashkil qilish, o'zaro qadiryatli munosabatlarni qaror toptirishning yaxlitlik moslashuvchanlik tamoyillarini amalda tatbiq etish, ijtimoiy kelib shiqishi, kelajakdagi maqsadini reja asosida shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar "Tarbiyaviy ishlarni boshqarishda tyutorlik faoliyatining o'rni" nomli o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 dekabrda 537-son buyrug'i, №537319-raqamli guvohnoma). Natijada, tyutor bilan talabalarning o'zaro munosabatini mustahkamlashga va tyutorlik faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tyutorlarning oliy ta'lim muassasalari talabalari bilan munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy pozitsiyasini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar "Komparativistikaliq pedagogika" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 11 noyabrdagi 429-son buyrug'i, №429-439-raqamli guvohnoma). Natijada, tyutorlik faoliyatining ijtimoiy pozitsiyasi zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning asosiy hajmi 131 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Ilmiy tadqiqotning Birinchi bobi "**Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlanadi. Unda tyutorlik faoliyatining G'arb gumanistik yondashuvlari va Sharq mentorlik an'analari sintezidan kelib chiqqan gumanistik mohiyati hamda avvalgi kuratorlik tizimidan pedagogik hamrohlikka o'tishdagi transformatsion roli yoritilgan. Bobda kuratorlikning ma'muriy yuklama va metodik yetishmovchilik kabi funktsional ziddiyatlari tahlil qilinib, bu bo'shliqni bartaraf etish uchun tyutorlik instituti joriy qilingani asoslangan. Shuningdek, talabada mustaqil o'rganish va shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv hamda uning samaradorligini kafolatlovchi ustuvor pedagogik shart-sharoitlar ilmiy tahlil qilingan.


Dunyo va mamlakatimiz ta'lim taraqqiyoti tarixiga nazar tashlansa tyutorlik faoliyatining shakllanishi bir qancha bosqichlarni o'z ichiga olganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'lim tizimida tyutorlik faoliyati uzoq tarixga ega kasb turi bo'lib, faoliyatning shakllanishi qadimgi Rim ta'lim tizimiga borib taqaladi. Mazkur faoliyat turi dastlab norasmiy ko'rinishda bo'lib, asosan ta'lim beruvchi ustoz tomonidan birgalikta olib borilgan. Qadimgi Rimda tyutor atamasi ustozning xizmat vazifasiga ko'ra bir qancha turlarga ajratilgan.

Tutela, rhetores	Rimlik tyutor
Domi	Mahalliy tyutor
Fori	Shet eldan kelgan tyutor
Pedagogue	Gretsiyadan yoshlarga ta'lim berish uchun olib kelingan tyutorlar
Pedisequis	Ahamiyatli shaxslar tyutori
Comes	Hamroq tyutor
Custos	Qo'riqlovchi tyutor
Rector	Tyutor
Governor	Erkak tyutor
Governoss	Ayol tyutor

### **1-rasm. Qadimgi Rimda tyutorlarning vazifalariga qarab ajratilishi**

Antik davrda tyutorlar faqatgina tarbiya bilan cheklanib qolmasdan, talabalarga dars ham bergan va ilmiy tadqiqotlar bilan ham shug'ullangan. Qadimgi Rimning inqirozi natijasida tyutorlar o'rta asrlarda cherkov qo'l ostiga o'tgan. Natijada, tyutorlar cherkov ta'limoti ostida ta'lim berib kelishgan. XII asrga kelib, tyutorlik Buyuk Britaniya Oliy ta'lim muassasalarida alohida kasb sifatida qabul qilingan. Uyg'onish davriga kelib, G'arbda ta'lim jarayonida katta o'zgarishlar ro'y bergan. Biroq, bu davrda ham tyutorlar ta'limda katta o'rin tutgan. Yangi davrga kelganda, Jon Lok tyutorlik haqida o'z fikrlarini bildirgan. Lok tyutor eng avvalo o'zi yashayotgan muhitni bilishi kerakligini, aqliy va ma'naviy jihatdan yetuk inson bo'lishi lozimligini ta'kidlagan. Tyutor dunyo haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishi kerakligi, bu orqali bolalarda to'g'ri fikr shakllantira olishiga ishonch bildirgan. Tyutor bolaga to'g'ri odatlarni o'rgatishi, uning dunyoqarashini to'g'ri shakllantira olishi zarur deb hisoblagan. Ta'lim oluvchilar qalbida ilm-fanga muhabbat hislarini uyg'otish orqali ma'naviy yetuklikni shakllantirishni nazarda tutgan. Jon Lok, yaxshi ta'lim bolaning kelajakdagi tizimli ravishda rivojlanishi uchun muhim bo'lib, yaxshi ta'lim olishda tyutordagi o'rnini alohida ajratgan. XIX asrga kelib, tyutorlik nazorat vazifasini bajaruvchi faoliyat sifatida xizmat ko'rsata boshlagan. Jozep Lankaster tyutorlik vazifasiga nazoratchilikning ham qo'shilishi natijasida talabalar sonining ortishi va samaradorlikning oshishini ta'kidlagan.

Hozirgi davrda, garb oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyati talabalar uchun qo'llab-quvvatlovchi, maslahat beruvchi va yo'naltiruvchi rolni o'ynaydi. Tyutorlar talabalarga nafaqat o'qish jarayonida yordam beradi, balki ularning akademik, shaxsiy va professional rivojlanishlariga ham ko'maklashadi. G'arb oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyati ko'pincha talabalar bilan samarali aloqalar o'rnatish, ularning ehtiyojlariga mos yondashish va akademik muvaffaqiyatni oshirishga qaratilgan. Umumiy qilib aytganda tyutorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlarini quyidagi rasmda ko'rsatilgan tarzda ajratib oldik.



**2-rasm. Tyutorlik faoliyatning rivojlanish bosqichlari**

Sharq madaniyatida tarbiyada ota-onaga, vatanga, oilaga muhabbatni shakllantirish asosiy maqsad hisoblangan va bu, albatta, tarbiyaviy jarayonda o'z aksini topgan. G'arbning tarbiyaviy tizimidan farqli o'laroq, tyutorlik faoliyatining belgilari mamlakatimiz hududida islom qarashlari asosida shakllana boshlagan. Qadimgi davrda mahalliy yoshlar ta'lim-tarbiyasida oilaviy qadriyatlarning birinchi o'ringa qo'yilganligi, tyutorlikning ustozlik maqomida bo'lishiga zamin yaratgan. VII asrga qadar Zarduhstiylik dini yoshlar tarbiyasida asosiy manba bo'lib kelgan. Islom dini bilan birga arab tilining kirib kelishi, yurtimizda birinchi Renessans davrining kelishi va rivojlanishida asosiy manbalardan bo'ldi. Natijada ta'lim va tarbiya ishlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar shogirdlarni o'qitib, norasmiy tyutorlik faoliyatini olib borishgan.

Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan rivoji natijasida, shuningdek, uning keyingi rivojiga zamin yaratgan manba sifatida, ikkinchi Uyg'onish davrining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu davrda asosiy bilimlar madrasalarda berilishi ta'limning yuqori darajada bo'lishiga olib keldi. Ushbu davrda ustozlar bolalarning yoshligidan ta'lim-tarbiyasiga javobgar bo'lgan, ammo bu asosan o'bro'li oila farzandlari tarbiyasida ko'zda tutilgan. Oddiy xalq farzandlari madrasalarga borib ta'lim olishgan. Temuriylar davridan so'ng, o'lka diniy savodxonlikka ko'proq e'tibor berib, dunyoviy bilimlarga e'tibor susayganligi natijasida, ushbu xonlik G'arb davlatlaridan rivojlanishda orqada qoldi. Xonliklar davrida esa ta'lim tizimida mavqeylashuv siyosati ustunlik qildi.

Rossiya markaziy Osiyoni bosib olgandan so'ng ta'lim tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi. Eski maktab va madrasalar bilan bir qatorda rus-tuzem maktablari ochildi va dunyoviy fanlar o'qitila boshlandi. Tyutorlik faoliyati asosan o'quvchilarga yangi bilimlarni tushuntirish va o'qishga yo'naltirishda ko'maklashish orqali amalga oshirildi. Natijada, zamonaviy ta'lim unsurlari mintaqa madaniyatiga kirib keldi.

Mustaqillik yillarida oliy ta'lim rivojlanishi uchun qonuniy hujjatlar qabul qilindi. Bundan asosiy maqsad – oliy ta'lim tizimini dunyo standartlariga javob beradigan tarzda rivojlantirish edi. Bu davrda tyutorlik faoliyatining o'rniga guruh rahbarlari talabalarga yordamchi sifatida xizmat ko'rsatdilar. Tyutorlik vazifalarini guruh rahbarlari olib borishi, ayni paytda guruh nazorati guruh rahbarining asosiy vazifalaridan tashqarida qolganligini ko'rsatadi.

Tyutorlik faoliyatining chuqur tarixiy va nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, u Rim ta'limidagi norasmiy tarbiyadan boshlab, Sharq ustoz-shogird an'anasidagi shaxsiy kamolotga qaratilgan mentorlikgacha bo'lgan evolyutsiyani bosib o'tgan. Ushbu nazariy asoslar tyutorlik faoliyatini bugungi oliy ta'lim tizimiga kiritish va rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi; biroq, mavjud muammolar (aniq metodika va tajriba yetishmasligi) sababli, tyutorlikning milliy qadriyatlarimizga mos, shaxsga yo'naltirilgan samarali mexanizmini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi mavjud holatning tahlili ko'rsatadiki, tyutorlikning vazifasi uzoq yillar davomida "Guruh rahbarligi" instituti zimmasida qolib, faoliyatning ma'muriy yuklamaga aylanib qolishi hamda motivatsion va metodik asosning yetishmasligi tufayli kutilgan pedagogik samarani bermagan. Mazkur tizimli bo'shliqni bartaraf etish maqsadida oliy ta'limga tyutorlik instituti joriy etildi va bu o'zgarish tyutorlik funksiyalarini ma'muriy nazoratdan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik mentorlikka transformatsiya qilish zaruratini asosladi. Bobda bu transformatsiyaning samaradorligini kafolatlovchi, talabada shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv va ustuvor pedagogik shart-sharoitlar ilmiy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **"Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish"** deb nomlangan ikkinchi bobida tyutorlik faoliyatini oliy ta'lim tizimiga samarali integratsiya qilishning amaliy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Bobning asosiy maqsadi tyutorlikning ta'lim muassasalariga kirib kelishining institutsional shart-sharoitlarini o'rganish, uning asosiy vazifalari va majburiyatlarini aniqlashtirish hamda talabaning akademik va ijtimoiy moslashuvdagi rolini yoritishdan iborat. Shu bilan birga, xorijiy ta'lim muassasalaridagi ilg'or tyutorlik tajribasini tahlil qilish asosida, milliy oliy ta'lim tizimining ehtiyojlariga mos keladigan va tyutorlarning kasbiy kompetensiyasini oshiruvchi rivojlantirish mexanizmining ilmiy-pedagogik modeli ishlab chiqiladi.

Tyutorlik faoliyatining maqsadi oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasasi va talaba orasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarining oliy ta'lim jarayoniga adaptatsiyasini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tanlagan kasbiga metodik, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish orqali motivatsiya yaratishdan iborat. Talabalarining darslarini tahlil qilib borish, darsdan bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy holatidan xabardor bo'lib borish ham shu maqsadga xizmat qiladi. Buning uchun tyutor, eng avvalo, o'zining asosiy vazifalarini bilishi va ularni sidqidildan bajarishi lozim. U talabalarining shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi shaxs bo'lib, ularning bo'sh

vaqtlarini mazmunli o'tkazish, kasbga yo'naltirish, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ilmiy to'garaklarga jalb qilish, muammo va kamchiliklarni o'rganib, ularga atroflicha yechimlar topish bilan shug'ullanadi.

Tyutorlik faoliyatining samaradorligini ta'minlash nafaqat individual yondashuv va hamrohlikni talab qiladi, balki ushbu faoliyatni tizimli yondashuv asosida tashkil etishni ham taqozo etadi. Pedagogik tizim sifatida tyutorlik faoliyati murakkab funksional tuzilmani anglatadi, bu funksiyalar yig'indisi emas, balki ularning integratsiyalashgan va o'zaro bog'liq harakatini ifodalaydi. Tyutorlik mexanizmi mazmunini rivojlantirish uchun tizimli tahlil metodologiyasi asos bo'lib xizmat qiladi, chunki bu tizimning barcha komponentlari (maqsad, mazmun, metodlar, natijalar) aniq bir natijaga – talabanning mustaqil rivojlanishiga erishishga qaratilgan bo'lishi shart.

Tyutorlik faoliyati talabalarining ta'lim jarayoniga javobgar bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- talabalarining zaruratlarini aniqlash;
- qulay ta'lim sharoitini tashkil etish;
- talabalarining shaxsiy rejalari va maqsadlarini aniqlashtirish;
- talabalarining ta'lim olish uchun zarur bo'lgan manbalarni aniqlash;
- o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarini bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikda ish olib borish;
- talabalarining ta'lim jarayonidagi mustaqil ishlari bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishda amaliy yordam berish;
- o'zini-o'zi rivojlantirib borish.

Tyutorlik haqida taniqli pedagog olimlari faoliyat mezonlarini quyidagi masalalar doirasida ko'rib chiqadilar: o'qituvchi-ustoz, o'qituvchi-maslahatchi; talabalar guruhining tyutori, murabbiy, kurator; talabalarining ilmiy rahbari, ta'lim muassasasida tarbiyachi; talabalarining ilmiy maslahatchisi. Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan izlanishlar tyutorlik faoliyatini talabalarining intellektual salohiyatini oshirish, kasbiy motivatsiyasini yo'naltirish, dunyoqarashini shakllantirish, fanlarni o'zlashtirish yo'lidagi izlanishlarini qo'llab-quvvatlash, o'z taqdirini o'zi belgilashda yordamchi sifatida tushunilishi kerakligini ko'rsatdi. Talabalar faoliyatini rejalashtirish, mustaqil ishlarni tashkil etish, o'qish va hayotiy muammolarni yechish ta'lim jarayonini samarali amalga oshirishning vositalaridan biridir.

Tyutorlik faoliyati oliy ta'lim muassasasida o'zaro muloqot va ijtimoiy munosabatlarda milliy qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni orttirish, nazariy ko'nikmalarni shakllantirish orqali talabanning ijtimoiylashuv jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi. Bu ishni tizimli olib borish orqali faoliyatni natijaviy amalga oshirishga erishiladi.

Tyutorlik faoliyati yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim pedagogik faoliyat sifatida oliy ta'lim muassasasi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi. Tyutorlik faoliyati o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarining ijtimoiy hayoti bilan qiziqishi va ularning ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilib borish bilan shug'ullanishni taqozo etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida tyutorlik faoliyati yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqdik. Eng birinchi navbatda, tyutor o'z ustida ishlashi zarur bo'lib, bu orqali pedagogik kompetensiyaning oshishiga erishiladi. Ilmiy tadqiqot ishimizda, shularni hisobga olgan holda, tyutorlarning o'z ustida ishlashi bo'yicha bosqichlar, mahoratini oshirish va talabalar bilan o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatni o'rnatish modelini ishlab chiqdik.

Ilmiy ish davomida talaba va tyutorlar bilan tadqiqot olib bordim va ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro munosabatlari, pedagogik faoliyatlari va ijtimoiylashuv jarayonlarini o'rganish orqali tyutorlik faoliyatining samaradorligini tahlil qildim. Izlanishlar davomida tyutorlik faoliyati mexanizmining samaradorligini ta'minlashda quyidagi muammolar salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi:

- tyutorlik faoliyatining mazmuni haqida aniq tushuncha yo'qligi;
- tyutorlik faoliyatiga oid o'quv-metodik qo'llanmalarining mavjud emasligi;
- tyutorlik faoliyati oliy ta'lim tizimida yangi joriy etilganligi sababli tyutorlarda pedagogik tajribaning yetishmasligi;
- birlashtirilgan guruhlarda to'laqonli ishlash uchun vaqt yetishmasligi;
- talabalar bo'sh vaqtini samarali o'tkazish bo'yicha aniq rejaning yo'qligi;
- tyutorlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining yaratilmaganligi.

Shuningdek, tyutorlik faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida talabalarning ta'lim muhitiga moslashuvini ta'minlash uchun tyutorlar tomonidan quyidagi masalalarni hal qilish tizimini joriy etish zarur deb topildi:

- oliy ta'lim muassasiga yangi qabul qilingan talabalarning ta'lim muassasiga moslashishi va ijtimoiy-pedagogik muhitdagi o'rnini shakllantirish;
- talabalarning ijtimoiy hayotidagi muammolarni o'rganish va ularni hal qilish uchun tizimli dastur ishlab chiqish;
- talabalarning kelajakdagi maqsadlari va ijtimoiy hayotidagi hodisalar yuzasidan talaba bilan aloqada bo'lish va ota-onalar bilan o'zaro suhbat o'tkazish tizimini yaratish;
- o'qish yili davomida talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan nazariy-didaktik tushunchalarni hisobga olgan holda, tyutorlik faoliyati mexanizmini takomillashtirish bo'yicha maxsus strukturaviy-dinamik model ishlab chiqildi. Uning amaliyotda qo'llanilishi esa, tarbiyaviy faoliyati mexanizmini takomillashtirish orqali kasbiy samaradorligi ta'minlangan tyutori taqdim etadi. Tyutorlik faoliyati mexanizmining komponentlari - shakl, metod, vositalar, prinsiplar va pedagogik shart-sharoitlar o'zaro integratsiyalashib, tyutorlik faoliyati mexanizmini takomillashtirish modelini tashkil etadi va maqsadli, metodologik, amaliy va natijaviy bloklarni o'z ichiga oladi (**3-rasmga qarang**):

**Maqsad:** Tyutorlik faoliyati mexanizmini takomillashtirish orqali ta'lim tarbiya samaradorligini taminlash

**Maqsadli blok**

Tyutorlarning o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish

Tyutorlik faoliyatida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni tizimini takomillashtirish

Tyutorlik munosabatlarini samarali tashkil etuvchi pedagogik tizimlar tizimini yaratish.

Tyutorlar faoliyati samaradorligini oshirish orqali talabalarning amaliy faolligini faollashtirish

**Metodogik blok**

**Printsiplar:** o'quv jarayonining samaradorligini taminlash; amaliy faoliyatining malakasini oshirish; tarbiyaviy jarayonning vaziyatli yondoshuvga asoslanganlik printsiipi; ta'lim muassasasi, talaba, ota-ona va jamoatshilik munosabatlarining bog'likligi

**Usullar:** o'z ustida ishlash, trening, motivatsiya, kreativ o'qitish metodlari.

**Vositalar:** tarixiy manbalar, an'analar, tarbiyaviy metodlar

**Amaliy blok**

Tyutorning o'z ustida ishlashi nazariy bilimlari va amaliy tajribalarini boyitishi

Tyutor va talabalar munosabatlarining ta'lim-tarbiya jarayonida aniq bir maqsadga tayangan holda hamkorlikka asoslanishi

Tyutor va talabalar o'rtasida aloqalarning muntazam ravishda davom etishi

Talabalar bilan oliy ta'lim muassasasi munosabatlarini muvopiqilashtirish, o'qish jarayonini nazorat qilish va regulator vazifasini bajarish

**Natijaviy blok**

**Mezon:** - Tyutorlik faoliyatini takomillashtirishning samaradorlik ko'rsatkichlari;  
- Talabalarda tyutorlik faoliyatini takomillashtirish orqali o'quv jarayonida faollikning shakllanganligi va samaradorligi aniqlash ko'rsatkishlari

**Tyutorlik faoliyati mexanizmini takomillashtirish orqali kasbiy samaradorlikning rivojlanganlik darajasi:** yuqori, o'rta va past ko'rsatkishlar bilan belgilanadi

**Natija:** Tarbiyaviy faoliyati mexanizmini takomillashtirish orqali kasbiy samaradorligi ta'minlangan tyutor

**3-rasm. Tyutorlik faoliyati mexanizmini takomillashtirish modeli**

Maqsadli blok (strategik-funksional komponent) tyutorlik faoliyatining institutsional va pedagogik samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi kognitiv, motivatsion, reflektiv va amaliy komponentlar mexanizmini rivojlantirish uchun zamin yaratishdan iborat. U tyutorlarning o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish orqali ularning uzluksiz kasbiy integrativ yondashuvga ustuvorlik berish asosidagi kompetensiyasini oshirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, u tyutorlarning talabalar bilan munosabatlarda yangi ijtimoiy-pedagogik sharoitlarga moslashish qobiliyatini, ya'ni ijtimoiy pozitsiyasini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish uchun adaptiv-prognozlash vazifalarini o'z ichiga oladi.

Metodologik blok tyutorlik faoliyatining amaliyotga joriy etilishida ta'lim va tarbiya integratsiyasi asosida aniqlashtirilgan pedagogik shart-sharoitlarni belgilab beradi. Uning asosini:

- pedagogik prinsiplar o'quv jarayonini samarador qilish, amaliy malakani oshirish tashkil etadi. Bu yerda ayniqsa, vaziyatga mos tarbiyaviy yondashuv (individual-differensial yondashuv) va ta'lim muassasasi hamda jamoatchilik bilan hamkorlik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.

- pedagogik metodlar doirasida talabalarning o'z ustida ishlash, trening, motivatsiya va kreativ o'qitish metodlari yordamida ularning izlanuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish ta'minlanadi.

- ta'lim-tarbiyaviy vositalar esa dunyoviy mezonlar bilan diagnostik metodlarning muvofiqligiga ustuvorlik berishni talab qiladi. Bunda tarixiy manbalar, milliy an'analar va gumanistik tarbiya tamoyillarini faoliyatga singdirish orqali tyutorlik faoliyatining innovatsion mexanizmi milliy qadriyatlarga asoslanishi kafolatlanadi.

Amaliy (innovatsion mexanizm tatbiqi): Ushbu blok tyutorlik faoliyatining innovatsion mexanizmini bevosita oliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etishga xizmat qiladi. U kommunikativ, tashkillashtirish, o'zlashtirishni ta'minlash, motivatsion va nazorat qilish kabi integratsiyalashgan funksiyalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi. Asosiy amaliy natijalar tyutorning nazariy bazasi va tajribasini boyitish, shuningdek, tyutor va talabalar munosabatlarini aniq maqsadga tayangan pedagogik hamkorlikka asoslashdan iborat. Bu blok tyutorlik faoliyatining oliy ta'lim muassasasi va talabalar o'rtasida o'z ustida ishlash, ijtimoiy munosabat o'rnatish, izlanuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalda yaratadi va tyutorni oliy ta'lim muassasasining asosiy regulyatori sifatida mustahkamlaydi.

